



O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI INNOVATSION VA INKLYUZIV RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Abdullayeva Nafisa Shavkatovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari, xususan, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Reggio Emilia ta’lim modeli asosida tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy markaz faoliyati hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ta’lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan xalqaro loyihalarning ahamiyati ochib berilgan. Muallif tomonidan maktabgacha ta’limda yangi avlod muassasalarini tashkil etish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, innovatsion yondashuv, inklyuziv ta’lim, Reggio Emilia, xalqaro hamkorlik, ta’lim sifati, pedagog kompetensiya, o‘yinga asoslangan ta’lim, yangi avlod bog‘chalari, dual ta’lim

Abstract. This article analyzes the modern trends in improving the preschool education system in the Republic of Uzbekistan, particularly focusing on the introduction of innovative approaches, the development of an inclusive educational environment, and the expansion of international cooperation. It also highlights the significance of the scientific and practical center being established based on the Reggio Emilia educational model, as well as international projects aimed at involving children with special educational needs in the learning process. The author outlines opportunities to enhance the quality of education through the establishment of new-generation preschool institutions and the improvement of pedagogical staff capacity.

Keywords: preschool education, innovative approach, inclusive education, Reggio Emilia, international cooperation, quality of education, pedagogical competence, play-based learning, new-generation preschools, dual education

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish har bir davlatning ustuvor strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, aynan maktabgacha yosh davri inson shaxsining intellektual, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim bosqichidir.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda mazkur sohani ilg‘or xorijiy tajribalar asosida modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim sifati va qamrovini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- bolalarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;
- nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish orqali ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish.

Shu bilan birga, ta'lim jarayoniga o'yinga asoslangan yondashuvni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiyalar va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Alohida ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jumladan, Italiyaning Reggio Emilia ta'limi asosida faoliyat yurituvchi ilmiy-amaliy markazni bizning institut huzurida tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ushbu markaz bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muhit orqali ta'lim berish, pedagog va bola o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kabi ilg'or g'oyalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish — maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish hisoblanadi. Ayni paytda "Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhit yaratish: alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'limga jalb qilinishi" mavzusidagi xalqaro loyiha doirasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

- Mazkur loyiha doirasida:
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'lim jarayoniga samarali jalb etish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda;
 - pedagog kadrlarning inklyuziv kompetensiyalari oshirilmoqda;
 - ta'lim muassasalarida moslashtirilgan o'quv-metodik materiallar joriy etilmoqda;
 - ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini tashkil etish orqali ta'lim tizimi mutlaqo yangi sifat bosqichiga olib chiqilmoqda. Ushbu muassasalarda Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari faoliyat yuritib, fan va matematika, san'at, til, jismoniy rivojlanish hamda robototexnika yo'nalishlarida tematik o'yin muhitlari yaratiladi.

2027–2028 o'quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarining majburiy ta'lim bosqichi sifatida joriy etilishi esa bolalarni maktab ta'limiga tizimli tayyorlash imkonini beradi.

Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlari xalqaro standartlar asosida takomillashtirilmoqda, shuningdek, dual ta'lim shakli orqali nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar — innovatsiya, inklyuziya va xalqaro hamkorlik uyg'unligi asosida bolalarning barkamol rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 2 fevraldagi PF-19-son farmoni “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi
 2. Edwards C., Gandini L., Forman G. *The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation*. – Praeger, 2012.
 3. OECD. *Starting Strong III: A Quality Toolbox for Early Childhood Education and Care*. – Paris: OECD Publishing, 2012.
 4. UNESCO. *Inclusion in Early Childhood Care and Education*. – Paris, 2020.
 5. Sheridan S., Pramling Samuelsson I. *Preschool a Source for Young Children’s Learning and Well-being*. – International Journal of Early Years Education, 2013.
- 

